



“YORDAMCHI SO‘ZLAR” MAVZUSINI MUSTAHKAMLASHDA ALISHER NAVOIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

(7-sinf, III-chorak)

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning “Yordamchi so'zlar” mavzusi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash;
- o'quvchilarda badiiy so'z qudratini his qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida yordamchi so'zlarning qo'llanishi haqida tushuncha hosil qilish.

Darsning turi: o'quvchilarning BKMLarini rivojlantiruvchi, umumlashtiruvchi.

Darsning shakli: taqdimot dars.

Taqdimot darsni o'tish uchun “Ko'makchi”, “Bog'lovchi”, “Yuklama” mavzularini o'rganish jarayonida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, Alisher Navoiyning “Mehr va Suhayl”, “Mahbub ul-qulub”, “Rostlik ta'rifida” asarlarida (adabiyot darsliklarida berilgan parchalar asosida) yordamchi so'zlarning qo'llanilishi bo'yicha vazifalar beriladi. Xususan, 1-guruh o'quvchilariga bog'lovchilarning qo'llanilishi, 2-guruh o'quvchilariga ko'makchilarning qo'llanilishi, 3-guruh o'quvchilariga yuklamalarning qo'llanilishini o'rganib, o'z kuzatishlarini taqdimot sifatida tayyorlash topshiriladi.

Darsning borishi:

Dars o'qituvchining quyidagi so'zlari bilan boshlanadi:

– *Aziz o'quvchilar, bugungi darsda biz Alisher Navoiyning adabiyot darsliklarida berilgan “Mahbub ul-qulub”, “Mehr va Suhayl”, “Rostlik ta'rifida” asarlarida yordamchi so'zlarning qo'llanilishini siz tayyorlagan taqdimotlar asosida o'rganamiz.*

1-guruhdan 1-o'quvchi: Biz guruhimiz bilan Alisher Navoiy asarlarida bog'lovchilarning qo'llanilishini o'rganib chiqdik. “Mahbub ul-qulub” asari nasriy shaklda, saj usulida yozilgan bo'lib, unda biriktiruv, zidlov, shart bog'lovchilari faol qo'llangan. Ayiruv, sabab, maqsad bog'lovchilari deyarli ishlatilmagan.

Va biriktiruv bog'lovchisi hozirgi tilimizda bo'lgani kabi uyushiq bo'laklarni, qo'shma gap qismlarini, ba'zi o'rinlarda esa ham uyushiq bo'laklarni, ham qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lab kelgan.

VA BOG'LOVCHISINING UYUSHIQ

BO'LAKLARNI

BOG'LAB KELISHI

Xaloyiqdin kishiga mujibi ta'zim va e'zoz va akobirdin asog'irg'a boisi iltifot va imtiyoz.

Necha ulug' kishi tamasxur va tiybat qilsa, aning qoshida beshukuh va viqor.

Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royihasisz mushki totor.

Ammo davron bog'ining xas va xashakoyinlari va yelde besabot va tamkinlari ko'ziga hilm ahli og'irliqqa mansub va garon jonliq bila ma'yubdirlar.

(“Mahbub ul-qulub”dan)

VA BOG'LOVCHISINING QO'SHMA GAP

QISMLARINI BOG'LAB KELISHI

Arslon ishi sayd urub sibo'ni to'yg'ormoq va sichqon varzishi diram o'g'irlab, tugunni axtarmoq.

Desangki, taoming zoye' bo'lmag'ay – yedur va tilasangki, libosing eskirmagay – kiydur.

Hunarlarni topmoq – yedurmakdur va ayblarni yopmoq – kiydurmakdur.

(“Mahbub ul-qulub”dan)

2-o'quvchi: Men “Mehr va Suhayl” hikoyatida biriktiruv bog'lovchilarining qo'llanilishini o'rgandim. Bu asarda va bog'lovchisi o'rnida, asosan, -u, -yu vazifadosh bog'lovchisi ishlatilgan ekan. Hikoyatdagi 44-baytda bu holatni ko'rish mumkin:

Anda bir shoh hokim-u voliy,

Mulki ma'mur-u himmati oliy.

Oti Nu'mon-u mulki oti Yaman,

Adlidin mulki guliston-u chaman.

(“Sab'ai sayyor”dan)

3-o'quvchi: “Rostlik ta'rifida” maqolatida ham va bog'lovchisi vazifasini -u, -yu yuklamalari bajarib, uyushiq bo'laklarini bog'lab kelgan:

Egri-yu tuz vasfi muhaqqaq durur,

Botil erur egri-yu tuz haq durur.

Vahmni qo'y, hamdam-u hamrozim o'l,

Aysh-u tarab vaqti navosozim o'l.

(“Hayrat ul-abror”dan)

4-o'quvchi: Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor", "Mahbub ul-qulub" asarlarida *bilan* yordamchi so'zi *bila*, *birla* shakllarida kelib, uyushiq bo'laklar orasida birkiruv bog'lovchisi vazifasini bajargan.

*Toki berdi taom ila sharbat,
Za'fliq zor jismig'a quvvat.*

*Evrulib kom birla davri sipehr,
Vasl topti Suhayl birlan Mehr.*

("Sab'ai sayyor"dan)

*Dona bila suv sari qilg'och xiom,
Tortti sayyod aning ustiga dom.*

("Hayrat ul-abror"dan)

*Saxovatsiz kishi birla gavharsiz sadafnig bir
hukmi bor.*

Dursiz sadaf bila o'lub qurug'on kashafg'a ne e'tibor.

("Mahbub ul-qulub"dan)

5-o'quvchi: "Mahbub ul-qulub" asarida *ammo* zidlov bog'lovchisi faol qo'llangan. Ba'zi o'rinlarda bu bog'lovchi *agar* shart bog'lovchisi bilan birga kelgan. Bunda *agar* bog'lovchisi *ham* yuklamasi vazifasini bajargan.

AMMO BOG'LOVCHISINING QO'LLANILISHI

*O't agarchi tog' etagin kuydurgay, ammo quyosh
axgarg'a nechuk yeta olg'ay?*

Ammo yel agar ko'kka yetsun, sabukbordur.

Kishi mashaqqatni o'z jism-u jonig'a tajviz etar.

Ammo ani yorig'a taxayyul qila olmas.

*Yel agarchi lola tojin uchurgay, ammo qiyo
kamarig'a neta olgay.*

("Mahbub ul-qulub"dan)

6-o'quvchi: Alisher Navoiy asalarida *lekin* zidlov bog'lovchisi *lek*, *valek* shakllarida faol qo'llangan:

*Kemasi lekin ul taraf ketti,
Ki, burun o'g'li kemasi yetti.*

*Lek bir nukta bordur yashurun,
Ki, seni mundoq asrasoq necha kun.*

*Mehr yodi bila ichib sog'ar,
Sola olmay vale yuziga nazar.*

("Sab'ai sayyor"dan)

*Har kishi yolg'onni desa, lek kam,
Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham.*

*Yaxshidur avvalg'isi xud begumon,
Lek ikkinchisi ham ermas yomon.*

("Hayrat ul-abror" dan)

7-o'quvchi: Alisher Navoiyning biz o'rgangan asarlarida *agar* ergashtiruvchi bog'lovchisi *garchi*, *gar*, ba'zi o'rinlarda esa *-ar* shaklida kelganining guvohi bo'ldik:

*Sen agar zohir etting itlikni,
Man sanga ko'rguzay yigitlikni.*

*Garchi Nu'monga ko'p yetishtti nahib,
Lek to'fondin o'lmadi osiyb.*

*Sanga, ey dardmand-u ovora,
So'z budurkim, gar aylabon chora.*

*Jobir ar zarb urur edi behad,
Barcha zarbin Suhayl etar edi rad.*

("Sab'ai sayyor"dan)

*Tilki fasih va dilpazir bo'lg'ay – xo'broq bo'lg'ay,
agar ko'ngul bila bir bo'lg'ay.
...nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning
ofatidur.*

("Mahbub ul-qulub"dan)

8-o'quvchi: Alisher Navoiyning biz o'rgangan asarlarida ayiruv, inkor bog'lovchilarini deyarli uchratmadik. Xususan *na....na* inkor bog'lovchisi asarda *ne...ne* shaklida qo'llangan. *Chunki* ergashtiruvchi bog'lovchisi ham nisbatan kam qo'llangan.

*Ikkisi chunki erdilar cholok,
Bir-biridan alarg'a yo'q edi bok.*

*Chunki qosid bitikni yetkurdy,
Shoh Navdar qo'lig'a topshurdi.*

*Qoldi Navdarg'a chunki bir manzil,
Besha ichra murur edi mushkul.*

*Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq,
Yolg'izin aylar erdi qat'i tariq.*

("Sab'ai sayyor"dan)

9-o'quvchi: Guruh a'zolarimiz bilan Navoiy asarlarida bog'lovchilarning qo'llanilishiga oid quyidagi xulosalarga keldik:

1. Eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida birkiruv bog'lovchilaridan *va. bilan (bila, birla, ila shakllarida) u, -yu, ham...ham* faol qo'llangan. *Hamda* bog'lovchisi deyarli ishlatilmagan.

2. Zidlov bog'lovchilaridan *ammo, lekin (lek, vale, valek shakllarida)* ishlatilgan. *Balki, biroq* bog'lovchilari nisbatan kam qo'llangan.

3. Ayiruv bog'lovchilari deyarli ishlatilmagan.

4. *na....na* inkor bog'lovchisi *ne...ne* shaklida ishlatilgan.

5. Ergashtiruvchi bog'lovchilardan, asosan, *chunki, agar (gar, garchi, -ar shakllarda)* so'zlari qo'llangan.

2-guruhdan 1-o'quvchi: Biz Alisher Navoiy asarlarida ko'makchilarning qo'llanilishi bilan tanishib chiqdik. *Bilan* ko'makchisi biz o'rgangan asarlarda *-ila, -bila, birla, birlan* shakllarida faol qo'llangan.

Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning bila soyir insonga sarafroz bo'lur.

Til muncha sharaf bila nutqning olatidur...

Masihokim, nafas bila o'lukka jon berdi...

("Mahbub ul-qulub"dan)

*Shohni derlar sipoh birlan shoh,
Shoh emasdur yo'q esa anda sipoh.*

*Dedikim: "Pahlavonliq ermas ul,
Kim, kishi makr bila urg'ay yo'l".*

("Sab'ai sayyor"dan)

*Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.*

*Vahm ila seskanmak o'lub sher ishi,
O'lturur erdi bolasig'a tishi.*

("Hayrat ul-abror"dan)

2-o'quvchi: O'xshatish ma'nosini bildiruvchi *kabi (kibi shaklida)*, *yanglig'* ko'makchilari Navoiy asarlarida

keng qo'llanilgan. Bu ko'makchilar badiiy asarlarda tashbeh san'atidagi o'xshatish vositasi bo'lib kelgan:

*Gar bu yangliq emasdur sanga kam,
Oni ham botroq aylagil e'lom.*

*Ul ulus jondin ayru el yangliq'
Sayr etib suv yuzida yel yangliq'.*

*Bir necha zavraq asrabon tayyor,
Yangi oy zavraqi kibi sayyor.*

*Beribon kemalar aro orom,
Yel kibi aylasak suv uzra xiom.*

(“Sab'ai sayyor”dan)

3-o'quvchi: Yo'nalish ma'nosini bildiruvchi sari ko'makchisi “Mehr va Suhayl” asarida sori shaklida ishlatilgan:

*O'ylakim, Mehrning xarobi Suhayl,
Mehrga ham Suhayl sori mayl.*

*Kemasin maskani sori surdi,
Oni o'z ma'maniga yetkurdi.*

*Maqsadi sori yetmagan ermish,
Kema ul sori ketmagan ermish.*

(“Sab'ai sayyor”dan)

*Dona bila suv sari qilg'och xiom,
Tortti sayyod aning ustiga dom.*

(“Hayrat ul-abror”dan)

4-o'quvchi: Uzra ko'makchisi Navoiyning she'riy asarlarida uzra, uza shakllarida qo'llangan. Uza shakli ko'pincha hozirgi tilimizdagi ustida vazifadosh ko'makchi ma'nosida ishlatilgan. Shuningdek, ko'makchilar ba'zan radif so'z bo'lib kelib, baytdagi fikrni ta'kidlashga xizmat qiluvchi badiiy vosita vazifasini bajargan.

*Doyim anga bu g'am aro g'am edi,
G'am neki, motam uza motam edi.*

(“Hayrat ul-abror”dan)

*Keldi chah boshi uzra g'amparvard,
Chekti un: “Ki-ey asiri mehnat-u dard...”*

(“Sab'ai sayyor”dan)

*Boqa olmay anga murodi bila,
Qon yutub, yo'qki boda, yodi bila.*

*Boshlabon ul cherikni sohil ila,
Suv yaqosidagi manozil ila.*

*Kim chiqib bir biyik shafar uzra,
Ko'z solib bahri mavjvar uzra.*

*Yosh to'kub bahri mavjvar yangliq',
Ko'k libos ichra nilufar yangliq'.*

(“Sab'ai sayyor”dan)

5-o'quvchi: Alisher Navoiy asarlarida ko'makchilarning qo'llanilishi haqida quyidagi xulosalarga kel-dik:

1. *Bilan* ko'makchisi she'riy asarlarda *ila, bila, birla, birlan* shakllarida qo'llangan.

2. *Kabi* ko'makchisi *kibi* shaklida she'riy va nasriy asarlarda ishlatilgan.

3. *Sari* ko'makchisi *sori* shaklida, *uzra* ko'makchisi *uza* shaklida she'riy asarlarda she'riy shaklida qo'llangan.

4. Navoiyning she'riy asarlarida *bila, kabi, uzra, yangliq'* ko'makchilari radif so'z bo'lib kelib, baytdagi asosiy fikrni ta'kidlab ifodalovchi badiiy vosita vazifasini ham bajargan.

3-guruh o'quvchilari yuklamalarning qo'llanilishiga doir kuzatishlarini quyidagicha bayon qildilar:

1-o'quvchi: Alisher Navoiyning she'riy asarlarida eng faol qo'llangan yuklamalardan biri *ham* so'zidir:

*Oni ham bildi shohi ozoda,
Kim, musofir chu bo'ldi shahzoda.*

*Ul Zuhalvash jazog'a xos o'lg'ay,
Mehr ham uqdadin xalos o'lg'ay.*

(“Sab'ai sayyor”dan)

*Sidq xitobi yana yonmas anga,
Chin desa ham, xalq inonmas anga.*

(“Hayrat ul-abror”dan)

2-o'quvchi: Go'yo o'xshatish yuklamasi “Mehr va Suhayl” hikoyatida go'yiyo shaklida qo'llangan. Tashbeh san'atida o'xshatish vositasi bo'lib kelgan:

*Mehr zulfig'a ko'ngli bog'lig' edi,
Bu anga go'yiyu atog'lig' edi.*

*Tiyra bo'ldi jahon anga, holi,
Go'yiyu botti mehri iqboli.*

(“Sab'ai sayyor”dan)

3-o'quvchi: -ki yuklamasi eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiyning she'riy asarlarida -ki, -kim shaklida qo'llangan.

*Shohkim, bag'rig'a tegib edi tish,
Ayladi Mehr holini taftish.*

*Har pari chehrai ki mahvash erur,
Moviy o'lsa, libosi dilkash erur.*

(“Sab'ai sayyor”dan)

*O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning,
Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning?*

(“Hayrat ul-abror”dan)

4-o'quvchi: Adabiyot darsliklarida berilgan Alisher Navoiy asarlarida yuklamalarning qo'llanilishi haqidagi xulosalarimiz quyidagicha:

1. Biz o'rgangan asarlarda yuklamalar boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan kam qo'llangan.

2. She'riy asarlarda, asosan, *ham, go'yo (go'yiyu shaklida), -ki, -kim, axir* yuklamalari qo'llangan. Tashbeh san'atida go'yiyu so'zi o'xshatish vositasi bo'lib kelgan.

3. Yuklamalarning boshqa turlari (so'roq-taajjub, inkor, gumon) deyarli ishlatilmagan.

Baholash: Guruhlar taqdimoti asardan keltirilgan misollarning to'g'ri tanlangani, slaydlar sifati, o'quvchilarning og'zaki nutqiga qarab baholanadi.

O'qituvchi: *Bugungi taqdimot darsimizdan maqsad yordamchi so'zlarning eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilishini mustaqil ravishda o'rganish va fikrlarimizni o'rtoqlashishdan iborat edi. O'ylaymanki, siz bu ishni uddaladingiz.*

Darsni yakunlash va uyga vazifa berish: Yordamchi so'zlar qatnashgan she'riy yoki nasriy matn tuzish.